



Fidoyilik –  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 11-aprel, seshanba,

43 (23.764)-son

# Zarafshon

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://www.facebook.com/zarnews.uz) [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)



## KONSTITUTSIYA – MENIKI, SENIKI, BIZNIKI!

Samarqand davlat tibbiyot universitetida "Konstitutsiya meniki, seniki, bizniki! Konstitutsiya o'zimizniki!" shiori ostida o'tkazilgan targ'ibot tadbirida ishtirok etgan samarqandlik yoshlar ana shu ahndi bildirdilar.

### "BOSHLANGAN ISLOHOTLAR DAVOM ETISHI UCHUN OVOZ BERAMIZ"

Tadbirda viloyatdagi oliy ta'lif muassasalarini talabalari, Samarqand shahar mahallalari yoshlar yetakchilari va faol yigit-qizlar ishtirok etdi.

Uchrashevda so'zga chiqqan Olyi Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, samarqandli tanqli ziyoilari, tadbirkor va hunarmandlar, yoshlar vakillari yangilanayotgan Konstitutsiyadagi muhim o'zgarish va qo'shimchalar haqidagi o'z fikrlarini bildirdi. Davr talabi va mamlakatimizda amala oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, kiritilayotgan yangiliklar davlatimiz taraqqiyotiga, xalqimiz farovonligiga xizmat qilishini ta'kidladilar.

– Biz bugun eng zukko, eng bilimdon yoshlarga ta'lif berayapmiz, – dedi Samarqand davlat tibbiyot universiteti rektori Jasur Rizayev. – Ular keyingi yillarda oliy o'quv yurtlariga o'qishga qabuluning shaffof, adolatli tarza o'tkazilishi natijasida saralangan yoshlardir. Bu iste'dodli yoshlarga universitetimizning yuqori malakali professor-o'qituvchilar, xorijlik mutaxassislar saboq bermoqda. O'z navbatida bugun ta'lif dargohimizda kimi ming naftaga yaqin chet ellik talabalar tahlis olyapti. Bundan o'n yil oldin buni

tasavvur ham qila olmasdik. Yangilanayotgan Konstitutsiyamizda ta'lif tizimi, jumladan, oliy ta'lif bo'yicha ko'plab yangi normalar kiritilmoqda va biz ularni qo'llab-quvvatlaymiz.

– Yurtimizda aholining jitmoyi ko'makka muhtoj qatlamini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Temir daftari", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari"ning tashkil etilishi va manzilli yordam ko'rsatilishi ko'plab oilalarning hayoti o'zgariishi, jamiyatda o'z o'nini topishiga imkoniyat yaratdi, – deydi urgutlik hunarmand-tadbirkor Zarina Rasulova. – Men ham ana shu daftarlardan tufayli 15 million so'm kredit olib, tikuvchilik bo'yicha tadbirkorlik faoliyatimni boshlagmanan. Sekin-asta yonimga uch-to'rt kishi qo'shildi, endi esa 60 nafara yaqin kasanachi bilan ishlayapman. Hunarimiz, tadbirkorligimiz ortidan shuncha oilaning ro'zg'ori but bo'ldi, shuncha opa-singillarimiz uyda o'tirib, mehnat qilib, daromad topish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shuning uchun ham biz bugungi islohotlar davom etishini istaymiz va yangilanayotgan Konstitutsiyani qo'llab-quvvatlaymiz.

Tadbirda el ardoy'ida san'atkorlar va iqtidorli yoshlar tomonidan konsert dasturi ham namoyish etildi.



### SAMARQAND "YASHIL SHAHAR"GA AYLANADI



**Samarqand 2021-yilda Yevropa Tiklanish va taraqqiyot bankining ciyomi 3 milliard yevroni tashkil qiluvchi «Yashil shahar» dasturiga qo'shilish orqali O'zbekistondagi barqaror rivojlanishni takomillashtiradigan birinchi sharga aylandi.**

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki mablag'larini hisobidan moliyalashtiradigan mazkur loyiha viloyat hokimligi bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Dunyoning Olma-Ota, Dushanbe, Bishkek, Ganj kabi 50 dan ortiq shahri ishtirok etayotgan «Yashil shahar» loyihasini amalga oshirishdan maqsad mazruk shaharlardagi ekologiya va atrof-muhit muammolarini bartaraf etish uchun xorijni sarmoya kiritish, obodonlashtirish va ko'lamzorlashtirish ishlarni tashkil etishdan iborat.

Mazruk loyiha konsepsiysi o'tgan hafta viloyat va Samarqand shahar hokimligining Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki boshqaruvi direktori Jujana Xargitay boshchiligidagi delegatsiyasi vakillari ishtirokidi uchrashevda taqdim etildi.

Imzolangan memorandum doirasida Samarqand shahrida qattiq maishiy chiqishlarni boshqarish, ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya, yo'l-transport tizimini yaxshilashni o'z ichiga oлган loyihaning chora-tadbirlar rejasini ishlash qiliqiladi. Shuningdek, shaharda YeTTB mablag'larini hisobidan yoritish tizimlari, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalansh samaradorligi oshiriladi. Yaqin 15 yilga mo'ljalangan ushu harakatlar rejasini xalqaro va mahalliy maslahatchilar guruhi tomonidan asosiy

ekologik va atrof-muhit muammolarini tahlil qilish va baholash natijalari asosida tayyorlangan.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki yashil iqtisodiyot dasturlarini moliyalashtirish uchun 5 milliard yevroдан ortiq mablag' ajratgan. Mazruk dastur Samarqand shahrinining strategik maqsadlarini, ekologik muammolarini hal etish, sarmoya jaib etish chora-tadbirlarini belgilashga xizmat qiladi.

– «Yashil shahar» loyihasiga Samarqand ham tanlab olingani xalqaro turizm markaziga aylanishi kutayotgan shahrimiz uchun ayni mudao bo'ldi, – deydi viloyat transport boshqarmasi boshlig'i Akobir Ashurov. – Ushbu dastur bo'yicha Yevropa Tiklanish va taraqqiyot banki tomonidan ajratiladigan mablag'lar hisobidan 350 dona elektrobus olib kelish rejalashtirilgan. Hozirda 100 dona elektrobus xarid qilish yuzasidan xalqaro tender jarayonlari bo'lib o'tmoqda. Joriy yilning may oyida dastlabki 6 ta elektrobus shahrimizga olib kelinib, sinov tariqasida asosiy yo'nalishlarga chiqariladi. Shuningdek, Qozog'iston, Rossiya va Turkiya davlatlaridan kelgan mutaxassislar shahrimiz ko'chalarini o'rganib, yo'l infratuzilmasi va landshafti, svetofor, videokamera, bankomat va bekatlar joylashuvni hamda dizayni kabi masalalarda yaqindan yordam berishmoqda.

Mazruk loyihalarni amalga oshirishda samarqandliklarning fikrlari inobatga olinadi. Buning uchun fuqarolar bilan o'zaro hamkorlik qilish maqsadida ular o'rtaida so'rovnomada o'tkazilib, Samarqand shahrineng chiroli va yashil maskangacha aylantirish uchun nima qilish zarurligi haqidagi tavsisi va g'oyalay berishlari taklif qilinadi. Onlayso'rovnomada joriy yilning aprel oyida o'tkaziladi, may oyida esa soha mutaxassislariga yaroqchilik vakkallari uchun seminar tashkil etiladi.

– Loyihani doirasida shahrimizi obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish, bog' va xiyobonlar yaratish maqsadida katta mablag' ajratish rejalashtirilgan, – deydi Samarqand shahar obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i Yunus Bobonazarov. – Shuningdek, bir qator mahallalarni kesib o'tgan ariq va kollektorlar ta'mirlanib, yuzlab xonadonlar oqova tarmoqlari uchun ulanadi. Shuningdek, markaziy yo'l va ko'chalarning o'rtaida gulzor tashkil etilib, xorijdan keltirilgan mevali daraxt ko'chatlari o'tqaziladi. Ko'cha chiroqlarini elektr tarmoqlarini ajratib, quyosh panellari o'tkazish ko'zda tutilinadi. Ayni paytda mutaxassislarini bilan loyiha uchun takliflarni o'rganib chiqyapmiz.

Bir necha bosqichda amalga oshiriladigan loyiha ishlari «AECOM» (AQSH) kompaniyasi rahbarligidagi bir guruh xalqaro va mahalliy mutaxassislar tomonidan shaharning barcha ekologik muammolari o'rganib chiqilgach boshlanadi.

Dilmurod TO'XTAYEV.

### INDALLOSINI AYTGANDA...

**Bobur ALIXONOV, journalist:**

- Jilovlangan OAV, bosimga tobe jurnalistrning davlatga ham, jamiyatga ham hech qanday nafi yo'q! Yopiqlik va korrupsiyaviy senzura bilan dunyo hamjamiyatiga uyg'unalashishimiz mumkin emas. Olamni anglaylik, o'z hayotimiz, mustaqil turmushimizni yaxshilash, ro'shonlik, mo'l-ko'chililik, minnatdor va rozi yashash darajalariga yetib olishimizda rost so'zning, emin-erkin matbuotning o'rni beqiyos. Yangi tahrirdagi Bosh Qomusimiz esa biz uchun mustahкам huquqiy kafolat, u yoki bu tazyiq-tahdidlardan xaloskor kuch vaadolat qalqoni bo'lajak!



### Yoshlar siyosati va sportda yangi tartiblar belgilandi

Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan shu yil 7-aprelda "Ma'muriy islohotlari doirasida yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror qabul qilindi.

Unga ko'ra, 2023-2024-yillarda davomida "Yoshlar daftari" tizimi oshlarga ko'rsatiladigan ijtimoiy-iqtisodiy xizmatlari 1,5 barobargacha oshiriladi;

yoshlarga ijtimoiy-iqtisodiy xizmatlari ko'rsatishda ularning iqtidorida umumli foydalanshiga qaratilgan ijtimoiy shartnomalar amaliyoti joriy etiladi;

davlat organlari va tashkilotlarning yoshlari qo'llab-quvvatlash tizimi "Yoshlar balansi" asosida yoshlarning ijtimoiy holati, qiziqishi va muammolarining xususiyatidan kelib chiqib yo'lg'a qo'yildi;

davlat organlari va tashkilotlarning yoshlari har yili 1-fevralga qadar o'z tizimlarida yoshlarga oid davlat si-

yosoti sohasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan yillik "Yoshlar dasturi"ni Yoshlar siyosati va sport vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlaydi.

**2024-yil 1-iyuldan** boshlab sportchi identifikatsiya kartalari uchun bo'lovlar miqdori uch barobarga kamaytiladi hamda ulardan foydalansh muddati 5 yil etib belgilanadi.

**2024-yil 1-martdan**

boshlab sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan rasmiy musobaqalar, O'zbekiston championati va kubogida ishtirok etish uchun sportchilarning mansubligi va ularning malakasini identifikatsiya kartalari (ID-karta) orqali aniqlash tartibi joriy etiladi.

**2024-yil 1-iyuldan** boshlab:

sportchilar va ularga birikirligan trenerlar va boshqa mutaxassislarining barcha ma'lumotlari "ERP Sport" yagona elektron boshqaruv tizimida yuritiladi. Bunda, faqat ushu tizim orqali olingan ma'lumotlar haqqoniy hisoblanadi;

sportchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni tasdiqlovchi (xalqaro sport federatsiya/assotsiatsiyalari talabari bo'yicha joriy etiladigan hujjatlardan mustasno)

boshqa har qanday sportchi pasportini joriy etish qatiy'an taqiqlanadi.

**2024-yil 1-yanvardan** boshlab:

Yoshlar siyosati va sport sohasida belgilangan maqsadli ko'satikchilarga erishish holati bo'yicha tahliyli materiallar va tashkilotlarga Yoshlar siyosati va sport vazirligidan ajratilgan mablag'lar miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar har chorakda ommaviy axborot vositalari va boshqa kommunikatsiya manbalari orqali keng jamoatchilikka e'lon qilib boriladi.

**2023-yil 1-iyuldan** boshlab mehnatga haq to'lash eng kam miqdorining 3 (uch) baravari miqdorida "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining stipendiysi" joriy etiladi.

Olimpiya va Paralimpika o'yinlarida g'olib va sovrindor bo'lgan sportchilarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasiga idoraviy mansub bo'lgan tibbiyot muassasalarida belgilangan tartibda umrbod bepul tibbiy xizmatdan foydalish huquqi beriladi.



Bugun havo o'zgaruvchan bo'lib, **yog'ingarchilik bol'maydi**. Tog'oldi hududlarda sel-toshqin hodisalari yuzaga kelishi mumkin. Harorat kechasi 7-12 daraja, kun-duzi 17-22 daraja iliq bo'ladi.

**12-14-aprel** ham yog'ingarchiliklitsiz o'tadi. Faqat **haftaning payshanba, juma** kunlari shamol tezligi **15-20 metr soni-yagacha** kuchayishi kutilyapti. Harorat kechasi 7-18 daraja iliq, kunduzi 22-35 daraja issiqgacha ko'tariladi.

**Samarqand gidrometeorologiya boshqarmasi.**

**KUN HIKMATI**

Eng oson ish - maslahat berish. Ammo u hayotiy tajribaga asoslansagina, eshituvchiga ma'kul keladi

# Burqutdagi issiqxona egasi ordenli bo'ldi

"Mahfuza opa orden olibdi, ordenni Prezidentimizning o'zi ko'ksiga taqib qo'yibdi". Bu xabar avval internet tarmoqlarida tarqalgan bo'lsa, kun o'tib, Mahfuza Qayumova tug'ilgan Paxtachi tumanidagi Burqut mahallasi va kelin bo'lib tushgan Karmana tumanidagi Arg'un mahalasi aholisi tilidan tushmay qoldi. Ha, Paxtachi tumanidagi "Paxtachi agro hamkor tomonqa xizmati" mas'uliyati cheklangan jamiyatni rahbari Mahfuza Qayumova xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida Prezidentimiz farmoniga ko'ra "Do'stlik" ordeni bilan taqdirlandi.

Mahfuza Qayumova tadbirkorlikni savdo-sotiqdan boshladi. Vaqt o'tgach, kattaroq ishlarning mo'jalini oldi. Avvaliga turmush o'rtoq'i Dilmurod Qayumov bilan parranda boqishni yo'lg'a qo'ydi. Bank krediti evaziga barpo etilgan parrandachilik majmuasida broyer jo'jalar parvarishi yo'lg'a qo'yildi. Ularning soni 500 mingtiga yetgan paytlar bo'ldi. Keyinchalik tuxum ishlab


chiqarish yo'lg'a qo'yildi.

Mahfuza 2009-yilda bir gektar yerdagi issiqxona barpo etdi. Tadbirkorlikning har ikki yo'naliishini birdek rivojlantirish borasidagi harakatlari o'z samarasini bermasdan qolmadidi. Mahsulot ishlab chiqarish yil sayin ortib bordi. Parranda go'shti ichki bozorda sotigan bo'lsa, pomidor va bodring Rossiya va Qozog'istonga yetkazib



Ochiqlik yaxshimi yoki yopiqlik?

2023-yil 11-aprel,  
seshanba



SABABSIZ SIGNAL 300 MING SO'M ...

*Mashina haydab ketayotganimda 'to'satdan oldidman piyoda chiqib qoldi va mashina signalini ketma-ket qattiq bosdim. YPX xodimi meni kuzatish turgan ekan. U meni behudaga ko'p marta tovush ishorasini berishda ayblab, jarimaga tortdi, shu to'g'rimi?*

D.TO'RABOYEV,  
Urgut tumani.

Mashina haydab ketayotganda tovushli ishoralar faqat aholi portidan tashqarida boshqa haydochchilarini qubib o'tish haqida ogohlantirish hamda zarur bo'lgan hollarda yo'l-transport port hodisasingin oldini olish uchun berilishi mumkin.

Boshqa vayizatlarda esa tovushli ishoralar foydalanish taqilangan. Tovush signalini sababsiz berish bazaviy hisoblash miqdorining bir barvari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Savolda aytiganidek, bir martasi yetarli bo'lishiga qaramasdan, ketma-ket tovush signali berilgan bo'lsa, bu ham sababsiz tovush signali berish, deb topilishi mumkin.

Yo'l-patru xizmati xodimi harakatlardan norozi bo'lsangiz, sudga murojaat qilishingiz mumkin.

QAYTARILMAYDIGAN QARZ OLMOQCHIMISIZ?

*Aholiga davlat tomonidan subsidiya (qaytarilmaydigan qarz) beriladi, deb eshitganman. Ayting-chi, u qaysi maqsadlarda va qancha miqdorda beriladi?*

A.KO'LIEV,  
Payariq tumani.

Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun quyidagi subsidiyalar beriladi:

- yengil konstruksiyalı issiqxonalar o'rnatish uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravarigacha;
- sug'orish vositalari xarid qilish uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha;
- urug'lklar va ko'chatlar sotib olish uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravarigacha subsidiya beriladi.

Subsidiya ajratilishi aholini tadbirkorlikka jaib qilish jamg'armasi maqlab'lar hisobidan amalga oshiriladi. U aholi bandligiga ko'maklashish markazi, yetkazib beruvchi tashkilotlar va tomonqa yer egalari o'retsida tuzilgan uch tomonlama shartnomasi ajratiladi.

Eslatib o'tamiz, ishsiz, kam ta'minlangan yoki kambag'al olilar a'zosi bo'lgan tomonqa yer egasi yengil konstruksiyalı issiqxonalar o'rnatish yoki urug'lklar, ko'chatlar xosud yoxud surʼing'izli vositalari xarid qilish uchun subsidiya ajratish bo'yicha tavsiya berishni so'rab doimiy yashash manzilidagi hokim yordamchisiga yoki "Onlayn mahalla" elektron platformasi orqali murojaat qilishi mumkin.

HAR BIR YIGIT-QIZ QO'LLAB-QUVVATLANADI

*Tuman va shaharlarda "Yoshlar daftari" jamg'armasi bor, deb eshitganman. Undan ham subsidiya olish mumkin ekan...*

N.BOTIROVA,  
Nurobod tumani.

To'g'ri, shunday jamg'armalar bor va uning maqlab'laridan "Yoshlar daftari" ga kiritilgan va moddiy ahvoli o'g'ish yoshlarga bazaviy hisoblash miqdorining 4 baravarigacha miqdorda bir maltilik moddiy yordam ko'sratilishi mumkin.

Shuningdek, qayd qilingan ro'yxatga kiritilgan yoshlarga ularning davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari avtomototransport vositalari haydochchilarini tayyorlash o'quv kursi xarajatlari qoplash uchun BHMning 4 baravarigacha miqdorda subsidiya olishish mumkin.

Tadbirkorlik faoliyatini boshlash va o'zini o'zi band qilish yuqorida aytigan yoshlarga zarur bo'lgan asbob-uskunalar va mehnat qurollari xarid qilish uchun BHMning 40 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratiladi.

Yoshlar zamonaliviy kasablarni egallashi, axborot texnologiyalarini o'rganishi va ular xorijiy tillarga o'qishi bo'yicha olti oygacha muddatli o'quv kurslar uchun har oyda BHMning 4 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratilishi qonunlarda belgilangan.

Subsidiya shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj iqtidori texnologiyalarini o'rganishi va ular xorijiy tillarga o'qishi bo'yicha olti oygacha muddatli o'quv kurslar uchun har oyda BHMning 50 baravarigacha miqdorda subsidiya ajratilishi kerak.

Qonunchilikda shuningdek, subsidiya ijtimoiy himoyaga muhtoj iqtidori yoshlarning ilm-fan, sport, san'at va madanlik yo'nalishlari uchun o'tash badalini to'liq miqdorda qoplash uchun ham ajratilishi belgilangan.

BETOBLIK DAVRIDA ALIMENT  
QARZDORLIGIDAN OZOD QILINADI

*Bir nafr voyaga yetmagan farzandimning moddiy ta'minoti uchun sud qaroriga asosan aliment to'layman. Yaqinda kasalligim sabab ishga chiqolmadim va tabiyiki, aliment to'lay olmadim.*

*Ba'zilar kasallik davri uchun aliment qarzdorligidan ozod qilinadi, deyishyapti, shu to'g'rimi?*


S.A.

Aliment to'lovchining da'vo arizasiga binoan, sud aliment to'lashi sharp bo'lgan shaxs kasalligib sababli aliment to'lamaganligini aniqlascha hamda uning moddiy ahvoli yig'ilgan aliment qarzni to'lashga imkon bermaydi, deb topsa, u aliment qarzlarini to'lashdan to'la yoki qisman ozod etilishi mumkin.

Shunga asosan, kasallik vaqtida yuzaga kelgan aliment qarzdorligini to'lashdan ozod qilish bo'yicha sudga da'vo ariza bilan murojaat qilishingiz mumkin.

Orif MUHAMMADIYEV,  
viloyat adliya boshqarmasi bo'lim boshlig'i.

**Dolzarb mavzu**



**MAKTABLARGA YANGI DARSLIKLAR TARQATILDIMI?**

**Yangi o'quv yilining yetti oyi o'tdi. Bu yil maktablarga yangi darsliklar tarqatilishi kerak edi. Xo'sh, joriy yilda viloyat maktablarining qanchasi yangi darsliklar bilan ta'minlandi?**

**"O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarda Xalq ta'lmini rivojlantirish bo'yicha Milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, joriy o'quv yilida 3-, 6-, 7-, 10-sinf darsliklari xalqaro ekspertlar ishtirokida yangilandi. Bugungacha viloyatmizga jami 6682200 dona 3-, 6-, 7-, 10-sinf yangi darsliklari keltirildi va huddudagi 1262 ta umumta lim maktabida o'zbek sinflarida o'qiyotgan o'quvchilarning darsliklari to'liq tarqatildi.**

**Rus va tojik sinflar uchun yangi darsliklar nashr qilishi ishlari biroz kechikkanligi sababli yaqinda olib kelindi. Ayni paytda kitoblarni tarqatish ishlari amalgao shirilmoxda. Maktablarda 3-, 6-, 7-, 10-sinf o'quvchilari yangi darsliklar kelgunga qadar Xalq ta'limi maktabida o'zbek sinflarida o'qiyotgan o'quvchilarning darsliklari to'liq tarqatildi.**

**Rus va tojik sinflar uchun yangi darsliklar nashr qilishi ishlari biroz kechikkanligi sababli yaqinda olib kelindi. Ayni paytda kitoblarni tarqatish ishlari amalgao shirilmoxda. Maktablarda 3-, 6-, 7-, 10-sinf o'quvchilari yangi darsliklar kelgunga qadar Xalq ta'limi maktabida o'zbek sinflarida o'qiyotgan o'quvchilarning darsliklari to'liq tarqatildi.**

**Ayni kunlarda o'zbek sinflariga yangi darsliklar shakllantrilgan ro'yxatga asosan, to'liq tarqatilganligiga qaramasdan, ayrim o'quvchilarning ota-onasi xizmat vazifasi va boshqa holatlar sabab bir shahardan ikkinchi shaharga ko'chib o'tishi munosabati bilan boshqa maktabda o'qishni davom ettirishi bois darslik bilan ta'minlash bo'yicha murojaatlar kelib turidil. Ushbu murojaatlar joyida o'rganilib, zudlik bilan jobjiy hal etish choralar ko'rilmoxda", deyiladi ma'lumotda.**

**Biz ushbu ma'lumotga yanada oydinlik kiritish maqsadida ayrim o'qituvchilardan yangi darsliklarni haqida so'radi.**

**- Yangi darsliklar 3-sinflarda to'liq tarqatilganidir, lekin 6-, 7-, 10-sinflarda kamida bittadan darslik yo'q, - dedi ismi sir qolishini istagan o'qituvchi. - Masalan, 10-sinfga eng zarur darsliklardan biri — adabiyot berilgani yo'q. Nima emish, mablag' yetishmagani sababli bu yil chop etilmadi. Buni ta'limga oid barcha rasmiy telegram kanallarda yozib chiqishdi. Metodik xizmat telegram kanalida adabiyot darsligining elektron shakli beridil. Shuni sinflar telegram guruhiga tarqatib, kamiga uni word dasturiga ko'chirib, mavzular bo'yicha sinflar telegram guruhiga tashlab, dars o'tyapman.**

**- 3-sinflarning darsliklari to'liq berildi, - deydi Kattaqo'r'g'on tumanidagi 9-umumiyo o'rta ta'lim maktabining oly toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi Shaxzoda Odilova. - Matematika darsligi juda yaxshi chiqqan, o'quvchilar kitobdagisi misol va masalalarni bemolal bajarla olyapti. "Ona tili" va "O'qish" kitoblari bitta kitob, ya'ni "Ona tili va o'qish savodxonligi" bo'lib kelgan. Ona tilida hech qanday qoida yo'q. Bolalar avvalgidek ot, sifat kabi qoida yodlamaydi, ammo kitobda bolani fikrlashga undaydigan mashqlar ko'p. Bolalar mana shundan biroz qiyalishdi. Yaxshi tomoni - endi o'qimaydigan bolalar ham o'ylayapti, fikrini aytayapti. Shuningdek, tabiiy fan, rus tili, ingliz tili darsliklari ham yangilandi. Yangi darsliklar ko'proq o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.**

**Xurshida ERNAZAROVA.**

## XDP viloyat kengashining plenumi bo'lib o'tdi

**Tadbirda partiya tashkilotining joriy yilga mo'ljallangan ustuvor vazifalari, yurtimizda kechayotgan islohotlar jarayonida faol ishtirok etish masalalari muhokama qilindi.**

Gilanayotgan yangi qoida va me'yordi qeng jamoatchilik, partiya a'zolari va elektorati orasida tushuntirish ishlari yanada jaladashtirish muhimligiga, hayot va faoliyat uchun muhim xizmatlar ko'rsatilmasligi barqaror tarraqiyotga to'siq bo'imoqda.

Qayd etilganidek, keyingi yillarda kuchli ijtimoiy himoya bo'yicha yaratilgan tizim izchil davom etishi uchun Kafolatni mustahkamlash zarur. Konstitutsiyaving tonun loyihasida esa aksariyat takliflarini o'z ifodasini topgan.

Xususan, kambag'allikni qisqartirish, ishlisizlikdagi himoya qilish bo'yicha davlatga yangi majburiyatlar yuklanishi qat'iy belgilab qo'yilmoqda.

Tariximizda ilk bo'lgan O'zbekiston ijtimoiy davlat debel belgilanmoqda. Ya'ni, insonga e'tibor hamda g'amo'rik - davlat va jamiyatning eng asosiy burchi ekani mustahkamlanyapti.

Davlatning ijtimoiy sodadagi majburiyatlari bilan bog'liq Konstitutsiyasi aksariyatlari yuritish, ishlari agentligi hamda savdo-samoot palatasi viloyat boshqarmasi tomonidan tashabbuskor, yosh tadbirkorlarning 104 ta loyihasi o'rnatilgan. Natijada ularning 64 tasi bosqichma-bosqich tasdiqlanib, huduyi tijorat banklari qo'yilmoqda.

2022-yilda 31 ta loyiha 14 milliard 684 million so'm imtiyozi kredit mablag'i ajratilib, 200 dan ortiq yangi ishlchi o'rni tarildi.

Konservator, Past Darg'on tumanidagi "OPPORTUNITY" oilaviy korxonasi rahbari Mustafa Abduvohidov 600 million so'm imtiyozi kredit olib, milliy shirinliklar tayyorlash faoliyatini boshlagan edi. Ayni paytda korxonada 35 nafr ishlchi faoliyat yuritmoqda.

Ikkii yil oldin oila a'zolarni va 5 nafr ishlchi bilan shirinliklar tayyorlashni yo'lg'a qo'ygan edik, - deydi Mustafa. - Mahsulotlaringizda talab oshdi va faoliyatimizni kengaytirish maqsadida o'tgan yo'li imtiyozi kredit olib, Xitoyda 16 turdag'i zamonaviy asbob-uskuna olib keldik. Hozirgi kunda korxonamizda 30 xildan ortiq shirinlik tayyorlanmoqda va ularni viloyat bo'ylab yetkazib berish yo'lg'a qo'yilgan. Joriy yil 1,5 milliard so'm daromad olishni va mahsulotlarni respublika bo'ylab yetkazib berishga olib keldik.

O'z muxbirimiz.

**Imkoniyatdan unumli foydalananayotgan tadbirkor**

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-dekabrdagi "Yoshlarni tadbirkorlikka jaib etish va ularning biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlor to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar uchun 7 yil muddatga imtiyozi dav bilan bazaviy hisoblash miqdorining ming baravaridan ikki ming baravaridan gacha kredit mablag'i ajratilishi belgilangan.

Qarorning muvofiq, viloyatda o'tgan yil "Yoshlar kela-jagim" jamg'armasi, Milliy bank yiloyat filiali, yoshlar ishlari agentligi hamda savdo-samoot palatasi viloyat boshqarmasi tomonidan tashabbuskor, yosh tadbirkorlarning 104 ta loyihasi o'rnatilgan. Natijada ularning 64 tasi bosqichma-bosqich tasdiqlanib, huduyi tijorat banklari qo'yilmoqda.

2022-yilda 31 ta loyiha 14 milliard 684 million so'm imtiyozi kredit mablag'i ajratilib, 200 dan ortiq yangi ishlchi o'rni tarildi.

Konservator, Past Darg'on tumanidagi "OPPORTUNITY" oilaviy korxonasi rahbari Mustafa Abduvohidov 600 million so'm imtiyozi kredit olib, milliy shirinliklar tayyorlash faoliyatini boshlagan edi. Ayni paytda korxonada 35 nafr ishlchi faoliyat yuritmoqda.

Ikkii yil oldin oila a'zolarni va 5 nafr ishlchi bilan shirinliklar tayyorlashni yo'lg'a qo'ygan edik, - deydi Mustafa. - Mahsulotlaringizda talab oshdi va faoliyatimizni kengaytirish maqsadida o'tgan yo'li imtiyozi kredit olib, Xitoyda 16 turdag'i zamonaviy asbob-uskuna olib keldik. Hozirgi kunda korxonamizda 30 xildan ortiq shirinlik tayyorlanmoqda va ularni viloyat bo'ylab yetkazib berish yo'lg'a qo'yilgan. Joriy yil 1,5 milliard so'm daromad olishni va mahsulotlarni respublika bo'ylab yetkazib berishga olib keldik.

F.RO'ZIBOV.

## "Kitobxonlik haftaligi" boshlandi

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabr-dagi "2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, har yili aprel oyida "Kitobxonlik haftaligi" tashkil etish belgilangan.

Pushkin nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazida boshlangan "Kitobsevar millat" shiori ostida III respublika "Kitobxonlik haftaligi"ni ushbu an'anaving davomi deyish mumkin. Tadbir davomida kitob yarmarkasi tashkil etildi. Shuningdek, Zulfiya nomidagi davlat mukofoti sohibasi Farangiz Xudoyorova va yoshlar

uchrashuv bo'lib o'tdi. Kitobxonlik haftaligi doirasida kitob ko'rgazmalar, ko'rik-tanlovlari, ijodkorlar bilan uchrashuvlar, yangi adapbiyotlar sharhi, badiyi va musiqi kechalar, "Sevimli kutubxonamga kitob sovg'a qilaman" aksiyalari o'tkaziladi.

**Zebiniso AXMEDOVA,**  
Samarqand shahridagi  
57-maktab o'qituvchisi.



## DXX kubogi kimga nasib etadi?

Samarqandda 16-30 yoshli mahalla yoshlari o'rtaida futbol va mini-futbol bo'yicha an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Davlat xavfsizlik xizmati kubogi" musobaqasiga start berildi.

Musobaqa ochilishiga bag'ishlangan tadbirda viloyat hokimi E.Turdimov, viloyat Davlat xavfsizlik xizmati boshqarmasi boshlig'i A.Axmedov so'zga chiqib, mahalla yoshlari o'rtaida ommalashib borayotgan mazkur musobaqa, mahallalarda ommayvi sportni rivojlantirish, iste'dodli sportchilarni kashf etishda xizmat qilayotganini ta'kidladi va ishtirokchilarga omad tiladi. Shundan so'ng, Past Darg'om va Jomboy tuman-

lari qizlari hamda Samarqand shahridagi "Bog'dod" va "Sartepa" mahallalari yoshlaridan tuzilgan jamaalar mini-futbol va futbol bo'yicha o'rtoqlik o'yinida kuch sinashidi.

Bu yilgi turnirda mini-futbol bo'yicha qizlar jamaolari ham ishtirok etadi. Bahslarning tuman (shahar) bosqichi 10-aprelдан boshlandi va may oyida yakunlanadi. Saralash musobaqalari iyun-iyul, final o'yinlari esa avgust oyida o'tkaziladi.

## Shunday yashar aslida inson

Ustozlik — buyuk maqom. "Ustoz otangdek ulug'" degan hikmatli naqil ham bejiz aytilmagan. Ulug'larimiz, otabobolarimiz ustoz hamda muallimlar qadrini yaxshi bilganlar, ularning obro'si nechog'li baland ekanini teran anglab, davraning eng to'riga o'tqazishgan.

Ular jamiyat binosining me'mori, ma'rifat bog'ining bo'stonlaridir. Ustozlar hayot bo'stonidagi niholning baqvuvt daraxtga aylanishi uchun mehr bilan ter to'kadi.

Salohiddin Yo'idoshev ilm osmonida yorqin ziyo taratib turgan yo'chi yulduz kabi edi. Bu inson sharofati bilan yuzlab odamlar hayotda to'g'ri yo'ni topdi.

Payariqliklar Salohiddin Yo'idoshevni eng fidoyi va o'z ishiga sodiq inson sifatida yodga olishadi. U kishining fazilatlari juda ko'p edi. Bir xayri ishni boshladimi, albatta, qo'l ostidagi xo'dimlari bilan birlgilida oxiriga yetkazardi.

Taniqli paxtakor, el hurmatiga sazovor bo'lgan Salohiddin Yo'idoshev 1927-yilda Qo'shrabot tumani Pangat qishlog'iда ziyolilar oilasida dunyoga keldi. U kishi umumiy o'rta ta'limni tamomlagach, tumandagi jamaoa xo'jaligida hisobchi bo'lib ish boshlaydi. Oradan ma'lum muddat o'tgach, Samarqand shahridagi jamaoa xo'jaliklari uchun kadrlar tayyorlash kursida tahlil oladi. Shundan so'ng sobiq jamaoa xo'jaligi raisining muovini, qishloq kengashi raisi, ko'p o'tmay, jamaoa xo'jaligi rafabari bo'ladi.

Izlanish, bilim olish va tajriba doimo yonma-yon yuruvchi omillardan sanaladi. S.Yo'idoshev umri davomida mana shu uchlik asosida o'zining hayot sxemasini yaratdi, desal mubolag'a bo'lmaydi. Zero, u kishi o'zining talabchanligi va ishiga mas'uliyati tufayli yana bir qator yuqori lavozimlarda ishladi. Chunonchi, Payariq tumani qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish boshqarmasi boshlig'i, tuman ijroiya qo'mitasining ikkinchi kotibi kabi lavozimlarda ham samarali faoliyat yuritdi.

S.Yo'idoshev qayerda ishlamasin, odamlarning daru tashvishi bilan yashadi. Shu bois mehnati va fidoyili bilan el-yurt hummatini qozondi.

U kishi bilimi, o'qijan insonlarni juda hurmat qilar, o'zi ham shundaylar qatorida bo'lishiga intillardi. Ukalari, farzandlarini ham ilmga oshno qilib, ularning o'qishini qat'iy nazorat qilib turgan. Bu esa olti qiz va ikki o'g'il-

ning Vatanimiz ravnaqiga hissa qo'shadigan malakali kadrlar bo'lib yetishishi muhim o'rinn tutdi.

Fidoyilik bir kishiga emas, balki butun mahallasiga yurtagi, yurtiga faqat va faqat yaxshiliklari olib kelishi hammamizga kundek ravshan. Gap shundaki, ustoz fidoyiligi sababli aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash ishlarida ham bosh-qosh bo'lgan. Bundan tashqari, tabii gaz olib kelishiga va ko'plab uy-joylar qurilishiga ham munosib hissa qo'shgan.

Bugun payariqlik nuroniyalar S.Yo'idoshevni o'sha vaqtlardagi Turkiston jamoa xo'jaligidan o'tadi. Poy kanaliga nasoslar qurdirib, lajmikor hududlarni suv bilan ta'minlagan mehnatkash inson sifatida yaxshi eslaidi. Keyinchalik suv borgan joylar obod bo'lishi bilan birga, u yerlarda yangi bog'-rog'lar ham barpo etiladi.

Kitob, gazeta, jurnallar o'qish, hayot bilan hamqadam yurish — har bir kishi uchun hayot-mamot masalasi. Inson qancha ko'p kitob o'qisa, matbuot bilan tanishib borsa, aql-zakovati, biliimi, dunyoqarashi ham kengayib boraveradi. Ustoz kitob, shu bilan birga, gazeta va jurnallarning har bir sonini goldirmay o'qib boradigan va boshqalarni ham shuningda vat qiladigan zioli inson edi. Buni mutanzam ravishda uyiga kirib boradigan gazeta va jurnallardan biliish qiyin emasdi.

S.Yo'idoshev kitob o'qishni juda yaxshi ko'rgani uchun o'z uyida mo'jaz kutubxona tashkil qilgandi. Bu ziyo maskanini naqaqt o'zi, balki butun mahalla, yoshlar ham keng foydalangan.

"Yaxshidan bog' qoladi..." deganlaridek, u kishining Vatan taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini inobtaga olib, 1994-yil shogirdi — o'sha paytdagi tuman hokimi Saydullo Boyzoqov tomonidan hozirgi 45-umumta'lim maktabiga va tumandagi ko'chalarning biriga Salohiddin Yo'idoshev nomi berilgan edi.

Xotira shunday ruhiy-ma'naviy qudratki, u insonning insonligini anglatuvchi, uni o'tmish va istiqbol bo'lib lab turuvchi buyuk qadriyatdir. U olamdan o'tgan ajoddolari eslashgina emas, balki yillar davomida sadogat bilan mehnat qilganlarning xotirasini hummatlash hamdir. Bu yoshlarni yurtparvarlik, mehnatsevarlik, ustozlarning eng yaxshi an'analaridan faxrilarish, ularga munosib vorislar bo'lish ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega.

**Akrom HOSHIMOV,**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor,  
**Kalqaro axborotlashtirish akademiyasi hamda**  
**Nyu-York (AQSH) fanlar akademiyasi akademigi.**

## Vatanparvarlar

Markaziy harbiy okrugning "Sazag'on" da-la-o'quv maydonida umumiyo o'rta ta'lim maktablarining 10-, 11-sinf o'quvchilari hamda "Vatan tayanchi" otryadlari o'rtaida "Vatan-parvarlar" harbiy-sport musobaqasining viloyat bosqichi bo'lib o'tdi.

Musobaqada Past Darg'om tumanining "Sardor" jamaasi g'oliblikni qo'iga kiritib, respublika yo'llanmasiga ega bo'ldi. Keyingi o'rinfar Kattaqo'rg'on tumanining "Qalqon" jamaasi hamda Kattaqo'rg'on shahrining "Temur izdoshlari" jamaolalariga nasib etdi. Shuningdek, musobaqa davomida "Eng yaxshi mer-gan", "Eng yaxshi sportchi", "Amir Temur tuzuklari bilimdoni" nominatsiyalari bo'yicha g'oliblar aniqlandi.

Obtabek NORBOYEV.



"Asakabank" aksiyadorlik jamiyat Samarcand filiali o'zining mijozlariga "Mijoz bank uchun emas, bank mijoz uchun" shiori ostida faoliyatining uzuksizligini ta'minlash, turli yo'nalishlarda moliyaviy ehtiyojini qondirishda har tomonlama ko'mak berib kelmoqda.

Xususan, 2023-yilning II-choragi davomida turli yo'nalishlarda 6 nafr mijozga milliy valyutada 45,7 milliard so'm, 3 nafr mijozga 1864943,21 AQSH dollarini miqdorida xorijiy valyutada kreditlar ajratilishi ta'minlandi.

Qishloq xo'jaligiga 44,9 milliard so'm, savdo sohasini moliyalashtirish uchun 4,5 milliard so'm, xizmat ko'rsatish sohasida tibbiy xizmatlarni moliyalashtirish uchun 220 million so'm, ishlab chiqarish jarayonining uzuksizligi ta'minlash maqsadida 17,4 milliard so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Bir nafr mijozga 22 million so'm quyosh panelari olish uchun kredit ajratiladi. Shuningdek, issiqxonaga va muzlatichli omborxonada faoliyati bilan shug'ul-anuvchi 18 nafr tadbirkorning kredit qarzdorliklari 4 yildan 7 yilgacha muddatiga uzaqtirildi.

"Asakabank" AJ Samarcand filiali tomonidan Samarcand shahar va tumanlarga 19 dona "Uzkard" va "Humo" bankomatlar o'rnatalgan bo'lib, o'tgan 2022-yil davomida bankomatlardan 451 milliard so'm mablag' yechilgan. 2023-yilning

1-aprel holatiga mazkur bankomatlardan 110 milliard so'm mablag' yechilgan. Shu yilning III-choragi yana qo'shimcha 18 dona bankomat ajratilishi rejalashtirildi.

Ayni paytda bankka tegishli 929 dona terminal mavjud.

Mijozlarga 95 ming dona, shundan, 40400 dona "Uzkard", 54600 dona "Humo" plastik kartalari ochilgan. Bank 155 ta budjet tashkilotiga xizmat

ko'rsatadi, ishchi-xodimlar uchun 32500 dona plastik kartalari ochilgan. Yil

yakunigacha qo'shimcha plastik kartalarni sonini 110 ming donaga oshirish reja qilingan.

2023-yilning 1-aprel kunigacha

bankimizga 682 nafr mijoz plastik karta si yo'qolganligi, yaroqsiz holga kelgani ligi to'g'risida murojaat qilgan va ularning plastik kartalari bir kun davomida yangisiga almashtirib berilgan. 45 nafr mijozning terminali nosoz bo'lgani uchun tez kunda ishchi holatga keltirilib, ijobji hal etildi.

Biz haqimizda hamda xizmat turlarimiz bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni www.asakabank.uz saytimiz orqali hamda 1152 qisqa raqamli, (78) 147-65-30, (78) 147-65-65 telefon raqamlari orqali barcha savollaringizga javob olishingiz mumkin.

Xizmatlar litsenziyalangan.



Asakabank

## Xudoyberdi KARABAYEV

Beshafqat o'llim Samarcand davlat tibbiyot universitetining 2-xirurgik kasalliklari kafedrasi professori, tibbiyot fanlari doktori Xudoyberdi Karabayevni oramizdan olib ketdi.

X.Karabayev 1936-yil 21-aprel kuni Past Darg'om tumanida ta-valud topqandi.

1954-yilda Samarcand davlat tibbiyot instituti (hozirgi Samarcand davlat tibbiyot universiteti) ning davolash fakultetiga o'qishga qabul qilindi. O'qishni tugatgach, Moskva tibbiyot institutida bir yillik aspiranturani o'tadi.

1961-1963-yillarda Past Darg'om tumanini markaziy shifoxonasida bosh shifokor lavozimida faoliyat yuritdi.

Keyinchalik tibbiyot institutiga qaytib aspirant, assistant, dotsent, kafedra mudiri, professor lavozimlarda faoliyat yuritdi. 1966-yilda tibbiyot fanlari nomzodi, 1980-yilda tibbiyot fanlari doktori ilmiy darajasi uchun dissertatsiyalarni muvaffaqiyatli himoya qildi. Ustozga 1982-yilda professor ilmiy unvoni berildi.

Uzun yilning qurulishiga majburiyatlarni halol va vijdonan barajaradi. Bir necha bor Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan faxriy yorliq va tashakkurnomalar bilan

taqdirlandi.

1990-yilda "Sog'liqni saqlash a'lochisi" unvoniga sazovor bo'ldi.

Ustoz Xudoyberdi Karabayevning yorqin xotirasiga qabilimizda abadiy saqlanadi.

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI REKTORATI VA KASABA UYUSHMASI QO'MITASI.**



### DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Rameyeva Irina Ochilovnaga (2018-yil 21-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarcand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

\*\*\*

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Alimov Yormamat Muxamadiyevchiga (2013-yil 1-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Jomboy tumanı Saroy ko'chasi, 15-uy.

\*\*\*

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasida marhum Jurayev Numon Turakulovichiga (2021-yil 3-sentabrdagi vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Azimova Kamola Hamzayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil:** Samarcand shahri Buyuk Ipak yo'li ko'chasi, 18-uy, 51-xona.

\*\*\*

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ul-anuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safaxonovich notarial idorasida marhum Urinov Abdimalikga (2015-yil 30-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlearning Sa'dullayev Jamshidxon Safaxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

